

Quyí Amudaryo davlat biosfera rezervati  
/QADR/

Qoraqalpog'iston Respublikasi 230206  
Beruniy tumani, "Oltinsoy" QFY

+998 97 220-95-20, +998 91 383-53-03  
lower.amudarya@gov.uz  
tugai.uz




Quyí Amudaryo davlat  
biosfera rezervati

Germaniya Bundestagining qaroriga binoan



Federal atrof muhit, tabiatni  
muhofaza qilish va yadro  
reaktorlari xavfsizligi vazirligi

tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda



**giz** Deutsche Gesellschaft  
für Internationale  
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH



Tuzish va dizayn: Dinara Adilova.  
Taxrirlar: Mariya Grítsina, Natalya Marmazinskaya, Galina Nikitina.  
Tarjimon: Xasan Tursunov.

## Umumiy ma'lumot

Quyida Amudaryo davlat biosfera rezervati O'zbekistonda 2011 yili Baday-To'qay qo'riqxonasi va qo'shimcha berilgan hududlar asosida tashkil qilingan.

Biosfera rezervati Amudaryo etaklarida, Sulton Uvays tog'i tizmasi ostida joylashgan. Hudud janubi- sharqdan shimoli- g'arbga yo'naltirilgan cho'ziq shaklga ega.

**Biosfera rezervat maydoni:**  
68 717,8 ga

Muqovada:  
Buxoro bug'usi erkagi kuyikish davrida.  
Suratchi:  
Ernest Kurtveliyev.

Biosfera rezervatining vazifasi — oxirgi yuz yil davomida maydoni 10 martadan ortiq qisqargan to'qay o'rmonini uning noyob o'simlik va hayvonot dunyosi bilan saqlab qolish.


## Biosfera rezervat zonalari

Qo'riqxonaga yoki yadro zonasini hududi to'qay massivlari, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonlar turlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan. Bu zonada har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlanadi, faqat ilmiy tadqiqot va monitoring o'tkazishga ruxsat beriladi.

Bufar zonasini qo'riqxonaga zonasini o'rab turadi. U qo'riqxonaga zonasini uchastkalarini o'rtasida yovvoyi hayvonlarning ko'chib yurishi uchun muhim ekologik yo'laklarni ta'minlaydi, to'qay o'rmonlarining saqlanishi va tiklanishi uchun imkon yaratadi.

**Qo'riqxonaga zonasining maydoni**  
11 568,3 ga

**Bufar zonasining maydoni**  
6 731,4 ga



O'tish zonasi  
maydoni  
50 418,1 ga

O'tish yoki iqtisodiy rivojlanish zonasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan mahalliy aholining mavjudligini nazarda tutadi.

## Iqlimi

Biosfera rezervat hududidagi iqlim — kontinental, quruq, issiq yozi, nisbatan sovuq qishi va yog'inlar miqdorining kamligi bilan xarakterlanadi. Yil davomida yomg'ir va qar ko'rinishida o'rtacha 80 mm gacha yog'in yog'adi. Yanvarda o'rtacha oylik harorat  $-5^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi. Ayrim yillarda haroratning minimal ko'rsatkichi  $-32^{\circ}\text{C}$  gacha yetadi. Qishda asosan ochiq va sovuq havo kuzatiladi. Yozi — issiq va quruq, havo namligi 40 % ni tashkil qiladi. Iyul oyidagi o'rtacha harorat  $+27-28^{\circ}\text{C}$ . Maksimal haroratlari  $+40-41^{\circ}\text{C}$  dan oshadi.

## Amudaryo

Amudaryo — uzunligi bo'yicha Sirdaryodan keyin ikkinchi va sersuvligi bo'yicha O'rta Osiyodagi eng yirik daryodir. Panj va Vaxsh daryolari qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Amudaryo qirg'oqlari suv ichishga keladigan hayvonlarning izlariga to'lib ketgan, shuning uchun kuzatish va hisobga olish uchun juda qulay joydir.

Bug'ular yilning xohlagan faslida Amudaryoni erkin suzib o'ta oladilar.  
Suratchi: Ernest Kurtveliyeu.



Amudaryo qirg'og'ida joylashgan Sulton Uvays tog'i Gyauroqal'a qo'rg'oni, mil. avv. II-IV asrlar.  
Suratchi: Mariya Gritsina.

## To'qaylar

To'qaylar — O'rta Osiyodagi suvi qurimaydigan daryolarning qirg'oqlari bo'ylab hosil bo'ladigan qayir o'rmonlardir. Bu yerda yuzlab turdagi qushlar va o'nlab turli hayvonlar salqin boshpanaga ega bo'lishadi. Ilgari bu yerlarda Turon yo'lbarisi yashagan.

Ushbu hudduda odamlar yashagani to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga tegishlidir. Ular to'qay o'rmonlari yog'ochidan uy qurish uchun va yoqilg'i sifatida foydalanganlar. Shuningdek, to'qaylarda baliqchilik anjomlari va to'rlarni yasash uchun ishlatiladigan mustahkam kendir — tola manbai bo'lgan kendir o'sgan.

Amudaryo vodiysining mo'l-ko'l o'simliklari chorva mollarini boqish uchun qulay sharoitlar yaratgan. Hozirgi kunda ham to'qay o'rmonlari zonasida sivilizatsiya taraqqiyotini o'rmonlar bilan bevosita bog'liq bo'lganligini ko'rsatuvchi tarixiy yodgorliklarni uchratish mumkin.

Afsuski, o'tgan asr davomida to'qay o'rmonlari maydoni 92 % ga qisqarib ketdi. O'zbekistondagi to'qay o'rmonlari bilan bog'liq bunday holat o'tgan asrning 50-70 yillarida sug'oriladigan dehqonchilik uchun yangi yerlarni keng ko'lamda o'zlashtirish sababli yuzaga kelgan. Quyi Amudaryo biorezervati mavjud noyob relik to'qay o'rmonlari mavjud uchastkalarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va tiklashni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

## To'qay o'rmonlari florasi

Biofera rezervati to'qay o'rmonini ta'riflaganda uch asosiy daraxt: terak, jiyda va tol'ni ta'kidlab o'tish zarurdir.

**Teraklarning mahalliy nomi — turong'i.**

Terakning ikki turi bor: ko'kimgir terak va har xil bargli terak. Ular bug'uning oziqlanishida muhim rol o'ynaydi. Yilning turli mavsumlarida hayvonlar daraxtning barglari, novdalari va po'stini yeyishadi.

Bu yerda jiyda yoki loxning uchta turi: sharqiy, ingichka bargli va turkman jiydalari uchraydi. Jiyda mevalari to'qayda yashovchi jonivorlar uchun muhim ozuqa manbai hisoblanadi. Har xil qushlar va sutemizuvchilar, jumladan yirtqich hayvonlar: tulki, bo'rsiq va chiyabo'rilar ham jiydani jon deb yeyishadi. Bug'ular ham jiyda mevalarini yeyishdan bosh tortmaydi. Jiyda mevasini inson ham yesa bo'ladi.

To'qay o'rmonlarining shakllanishida jung'or toli, Olga va Vilgelms tollari muhim ahamiyatga egadir. Ular ba'zida o'tish qiyin bo'lgan butun boshli chakalakzor massivlarini hosil qiladi.

To'qaylarning ko'p qismi sharqiy lomonos, sibir sinanxumi, fors sarsabli va Lemann zarpechagi kabi chirmovuqlar bilan o'rab tashlangan.

To'qaylarda butalardan yulg'un va chingil o'sadi. Yulg'un tuproqqa nisbatan

Yetilmagan daraxtlar, o'tsimon o'simliklar va butalar o'tib bo'lmaydigan chakalakzorlarni hosil qiladi, shuning uchun to'qaylarni markaziy osiyo changalzorlari deb ham atashadi.  
*Suratchi: Ernest Kurtveliyeu.*



Yulg'un — asal beruvchi o'simlik, shuning uchun gullash paytida unga juda ko'p arilar uchib ketishadi.  
*Suratchi: Anna Ten.*

talabchan emas va tez o'sadi. Yulg'un to'qaylarning sho'rlangan va yong'indan keyingi kuyindi qoldiqlari bilan qoplangan hududlarni birinchi bo'lib ishg'ol qiladi. Yozning o'rtasidan to kech kuzgacha gullaydi. Chingil ham shunday kamsuqum — qurg'oqchilikka bardoshli va quyoshsevar, sho'rxoklarda o'sa oladigan o'simlik. Chingil dukkaddoshlar oilasiga mansub barcha o'simliklar kabi azot yig'ish hisobiga yerning holatini yaxshilaydi.

Suv havzalari qirg'oqlarida yoki zax joylarda balandligi 6 metrgacha yetadigan qamish o'sadi.

O'tsimon o'simliklar orasida ayniqsa bahaybat boshqoqli o'simlik — eriantus savlatli ko'rinadi. Ba'zi joylarda to'qaylar hududining asosiy qismini qizilmiya va kendir egallagan.

To'qay o'rmoni degradatsiyasining asosiy sababi — bu Amudaryo oqimining antropogen ta'sir oqibatida kamayishidir. Tabiiy gidrologik jarayonlar izidan chiqqan: masalan, to'qaylarni suv bostirgan va suv bilan to'yintirgan har yillik toshqinlar amalda to'xtagan va ular bilan birga daryoning yangi cho'kindilarini shakllantirish ham tugagan. Bundan tashqari ulkan kanallar tarmog'ining o'tkazilishi natijasida yer osti suvlarining ko'tarilishi va tuproq sho'rlanishining ortishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida bu to'qayning qurishiga olib keldi.



## To'qay o'rmonlari faunasi

**Mahalliy aholi uni "xongul" deb ataydi va bu "xon guli" degan ma'noni anglatadi.**

Biosfera rezervatining asosiy hayvoni — to'qay yoki buxoro bug'usi (*Cervus hanglu bactrianus*) — bu cho'l sharoitlarida yashash uchun moslashgan bug'udir.

Ilgari buxoro bug'usi Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yashagan. Ularni shafqatsiz qirib tashlanishi va to'qay massivlari maydonining qisqarib ketishi natijasida populyatsiyasiga putur yetgan.

Buxoro bug'usi Quyi Amudaryo biosfera rezervatida sun'iy ravishda qayta tiklangan.

Hozirgi vaqtda bu yerda 1 500 tadan oshiq bug'u yashamoqda va aynan shuning uchun bu joy buxoro bug'usining dunyodagi eng katta populyatsiyasini saqlovchi maskan bo'lib qolmoqda.



Shoxlari o'sish vaqtida yumshoq va usti baxmalga o'xshash teri bilan qoplangan bo'ladi. Bunday yosh shoxlar panta deb ataladi. *Suratchi: Ernest Kurtveliyev.*

Biosfera rezervatida yovvoyi sutemizuvchilar orasida oddiy chiyabo'ri eng ko'p uchraydi. U tashqi ko'rinishidan o'lchamlari biroz kichikroq bo'rini eslatadi.

Quloqlari uzunligi bo'yicha chempion — tolay quyonni o't-buta o'simlik chakalakzorlarida yashaydi. Quyonning quloqlari bug'lanish yuzasini ko'paytirish hisobiga cho'lning jazirama sharoitlarida tanasini sovutish uchun xizmat qiladi. Bo'rsiq tolayning biotop bo'yicha qo'shnisidir.

Xiva qirg'ovuli — biosfera rezervatining ko'rki. *Suratchi: Ernest Kurtveliyev.*



Turon yo'lbarisi butunlay qirib tashlanganidan keyin biosfera rezervati hududida mushuksimonlar oilasi vakillaridan dasht va qamish mushuklari qolgan. Ba'zida tutash cho'ldan qoraquloq kirib turadi.

Biosfera rezervat hududida karagan tulkisi ham yashaydi. Bu tulkinning rangi ancha och qizg'ish-kulrang tusda bo'ladi.

Bu yerda tuyuqlilardan bug'udan tashqari to'ng'izlar ham yashaydi. Ular asosan qamishzor va to'qay o'rmonlarida hamda Amudaryodagi orollarda yashaydilar.

Biosfera rezervatida qushlarning mavjud 200 dan ortiq turlarga boy tarkibi ular yashash joylarining xilma-xilligi, ozuqa va boshpanalarining mo'lligi bilan belgilanadi. Mavsumiy ko'chib o'tishlar paytida to'qaylar O'rta Osiyoni kesib o'tuvchi ko'p sonli ko'chmanchi qushlar uchun tinim olish maskani sifatida xizmat qiladi. To'qaylar va biosfera rezervatining qirg'oqbo'yi zonasi ham uyalash uchun muhim joylar hisoblanadi.



Chiyabo'ri rining salmoqli momiq dumi har doim pastga qaragan. *Suratchi: Ernest Kurtveliyev.*

## Tashrif buyurish qoidalari

Biosfera rezervatiga tashrif buyurganda ushbu murakkab bo'lmagan qoidalarga amal qiling va o'zingizni tabiat mehmoni ekaningizni yodda tuting.

- Biosfera rezervati hududi bo'ylab harakatlanish faqat uyushgan guruh bo'lib biosfera rezervat vakili hamrohligida amalga oshirilishi lozimdir.
- Faqat mavjud mashrutlar bo'yicha harakatlanish zarur.
- Barcha chiqindilarni albatta o'zingiz bilan olib keting va biosfera rezervati hududiga hech narsa tashlamang. Agar hududga uzoq muddatga tashrif buyuradigan bo'lsangiz o'zingiz bilan chiqindilar uchun paket olib keling va qaytishda uni olib keting.
- Gullarni uzmang, daraxtlarni sindirmang, po'stlog'iga shikast yetkazmang! Biosfera rezervat hududida, shuningdek, har qanday o'tlar, mevalar, qo'ziqorinlar va o'simliklarni terish taqiqlangan. O'simliklar nafaqat sizni, balki bu yerga keyin keladiganlarni ham xursand qilib tursin. Shuningdek, hayoti o'simliklar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan barcha hayvonlarni ham.
- O'zingizni osoyishta tuting: hayvonlar va qushlarni cho'chitmang. Hayvonlar hayotiga halal bermasdan, uzoqdan turib kuzating.
- Tabiiy suv havzalariga hech narsa tashlamang va to'kmang, u joyda ham o'ziga xos hayot rivojlanadi; u yerda yashaydiganlarni nobud qilmang.
- O'zingiz borgan joylarning tabiati haqida esdalik sifatida faqat fotosuratlarini oling. Agar siz sayr paytida biror hayvonni ko'rib qolsangiz uni rasmga olishingiz mumkin, lekin aslo uni ta'qib qilmang.
- Musiqa qo'ymang, undan ko'ra tabiat musiqasi: qushlar sayrashi, barglar shitirlashi, suvning jildirashini eshiting va boshqalarga ham bunga imkon bering. Tinchlik saqlasangiz ko'proq narsani ko'rasiz va eshitasiz.
- To'qay o'rmonida chekmang va olov yoqmang.

## Me'moriy yodgorliklar

Biosfera rezervati hududi va uning atroflarida biz sizga borishni tavsiya qiladigan madaniy meros ob'yektlari joylashganidir.

XVII–XIX asrlar

**Sulton Uvays Bobo maqbarasi** — Yamanlik avliyo, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning zamondoshi sharafiga qurilgan ramziy maqbara, ular hech qachon uchrashishmagan bo'lsa-da o'rtada ruhiy-mistik darajada bog'liqlik bo'lgan.

mil. avv. IV asr —  
mil. I asr  
IX–X asrlar  
XII–XIV asrlar

**Janpiq-qal'a** — bu qo'rg'on nafaqat daryo va tog'lar orasidagi yo'lni himoya qilgan, balki daryo portini quruqlik tomondan ham qo'riqlagan. Qazishmalar davomida kelib chiqishi Misrdan to Skandinaviyagacha bo'lgan o'rta asr dunyosi davlatlariga tegishli topilmalar aniqlangan.

X–XIII asrlar

**Quyunchiq xabarchi minorasi** — harbiy xavf yaqinlashgani haqida ogohlantirgan, mash'ala xabarchi mayog'i. Qadimgi Xorazmning barcha hududi keyingi minoradan oldingisi ko'rinib turadigan minoralar tarmog'i bilan qoplangan bo'lgan.

mil. avv.  
IV asr —  
mil. III asr

Xorazm me'morchiligi uchun odatiy bo'lgan, trapetsiya shaklidagi, ikki qatlamli devor, kamonchilar uchun ikki qavatli galereya, minora va tuynuklari bo'lgan **Gyaur-qal'a Sulton Uvays tog'i** qo'rg'oni.

mil. avv. II–IV  
asrlar  
mil. avv. IX–XI  
asrlar

**Chilpiq** — daxma yoki «sukut minorasi», zardushtiylarning ossuar (suyak saqlanadigan) mozortlarining joyi. Tabiiy tepalikda joylashgan, balandligi 15 metr va diametri 65 metr bo'lgan dumaloq tomsiz minora.

Janpiq-qal'a.  
Suratchi: Ernest  
Kurtveliyev.



## Jonli tabiat taqvimini

### ● Mart-aprel

Toshbaqalar, kaltakesaklar va ilonlar uyg'onadi. Gullash eng avjiga chiqqan vaqt. Hayvonlarning ko'plab turlarida faol tarzda urg'ochisi ko'ngilni olish va urchish payti. Buxoro bug'usi erkaklari shoxlarini tashlashyapti. Ko'chmanchi qushlar qisqa muddatli hordiq olish uchun to'xtashadi. Aprelda uyalovchi qush turlari uchib kelishni boshlaydi. Qirg'ovulni makiyonini qag'aq'lab chaqiradigan va uyalaydigan davri.

### ● May

Buxoro bug'ularida tullash jarayoni faol kechayapti. Uzoq va jazirama yoz fasli boshlanmoqda.

### ● Iyun-iyul

Buxoro bug'ulari shoxlarining shakllanishi va qattiqlashuvi tugayapti. Bug'uchalarning tug'ilishi. Qush bolalarini boqib katta qilish. Vaqtinchalik suv havzalari qurimoqda.

### ● Avgust-sentyabr

Buxoro bug'ularida ko'payish — kuyikish davri yaqinlashmoqda. Qushlarning qishlov uchun uchib ketishi boshlanmoqda.

### ● Oktyabr-noyabr

Qisqa kuz vaqti. Katta yoshdagi bug'ular yozgi yungini zich va qalin bo'lgan qishkisiga almashtirmoqda. Bug'uchalar olachipor rangini sidirg'asiga almashtirayapti. Qushlarning kuzgi ko'chishi yakunlanyapti va qishlov shakllanmoqda.

### ● Dekabr-fevral

To'qaylar oltin kuz faslida.  
Suratchi: Ernest Kurtveliye.



Karagan tulkisi quloqlarining orqa tomoni qo'ng'ir-qora rangda.  
Suratchi: Ernest Kurtveliye.



## Qanday yetib olish mumkin?

### ● Toshkent

### ● Nukus/ Urganch

### ● QADR

	har kuni	
✈️ Toshkent — Nukus		1 soatu 40 d.
✈️ Toshkent — Urganch		1 soatu 30 d.
🚗 Toshkent — Nukus		16 soat
🚗 Toshkent — Urganch		13 soat
🚗 Nukus — tashrif-markazi		1 soatu 30 d.
🚗 Urganch — tashrif-markazi		1 soat

## Ekskursiya

Agar siz biosfera rezervatiga kelgan bo'lsangiz tashrif-markazidan Amudaryogacha bo'lgan 11 kilometr masofali piyoda sayrni amalga oshiring. Siz cho'l, cho'l-to'qay, to'qay hamda qirg'oqbo'yi tabiiy komplekslaridan o'tasiz, u yerda yashaydigan jonzotlarni uchratasiz, yo'l-yo'lakay buxoro bug'ulari joylashtirilgan volyerga tashrif buyuring.

Ekskursiyani quyosh chiqish paytida boshlashni maslahat beramiz: bu vaqtda hayvon va qushlar eng faol bo'ladilar.

Qishda oziq-ovqat ta'minoti keskin kamayadi va bug'ular daraxtlarning shox-shabba yoki po'stlog'ini iste'mol qilishga majbur bo'ladilar.  
Suratchi: Mariya Gritsina.



A380

SULTON UVAYS

5 Janpiq-qal'a

Taldyk

Ko'kdaryo

Audiogid

**izi**.TRAVEL

Mobil qurilmaga izi.TRAVEL ilovasini yuklab oling, unda Quyi Amudaryo biosfera rezervati bo'yicha audiogidni toping va ovozli fayllarni ko'chirib oling. Marshrutga chiqishdan oldin izi.TRAVEL ilovasini ishga tushiring va joylashuvni aniqlash funksiyasini yoqing; siz ekskursiyani audiogid hamrohligida amalga oshirish imkoniga ega bo'lasiz.



Baday-To'qay

Amudaryo

Legenda

- Tashrif-markazi
- Volyer
- Dam olish joyi
- Velomارشrut
- Piyoda marshrut
- Trassa
- To'qaylar
- Dalalar



Masshtabi

1 : 50 000  
0 0,5 1 km